

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Tashpulatov	
Basketbol texnikasini o'rgatish metodikasi	98
D.Rafikova	
Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonidagi pedagogik amaliyotning ahamiyati	103
A.Muxametov	
Qo'l to'pi o'yini darvazobonini tayyorlashning uslubiy yo'llari	107
A.Kdirbayeva, Y.Ryabova, A.Abdikadirov	
Uzluksiz pedagogik amaliyot – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligining eng muhim komponenti	113
G'.Shermatov	
Yosh bolalarga kurash sport turlarini o'rgatish.....	121
N.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish videomateriallari	130
F.Karimov	
Keksa yoshdagi 60-64 yoshli erkaklar uchun jismoniy holatini inobatga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasi uslubiy tavsialari.....	135
Y.G'afforov	
Ta'lim sifati va o'qitish metodlarini tanlashning asosiy jihatlari.....	145
A.Tadjibaeva	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash vositasi sifatida.....	150
M.Tairova	
Aholini sog'lomlashtirish uchun jismoniy mashqlarning tejamkor texnologiyalari	157
M.Baybaeva, I.Imomov	
Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmali modeli	160
R.Turgunbayev, K.Kodirov, A.Nishonboyev	
O'quvchilarda umummatematik faoliyat usullarini shakllantirish modeli	164
S.Uraimov	
Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini o'rganish va tadqiqot qilish.....	170
G'.Ernazarov	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	174
S.Uraimov	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy xususiyatlari.....	179
R.Nazimov	
O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish.....	182
S.Isroilova	
Rus tilini o'qitish va muloqot qilish jarayonida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish	187
M.Tojiboyev, D.Yunusova, M.Xursantova	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi	191
Q.Iqboljon	
Sharq allomalari musiqiy merosida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimining gnesiologik tahlili.....	195
O.Fozilova	
Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondashuv usullari	201
A.Zaripova	
Oliy ta'lim muassasalarida noan'anaviy ta'lim berish metodlarini amaliyotga joriy etish orqali chet tillarni o'qitish sifatini yaxshilash.....	205
B.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik madaniyatini rivojlantirishining nazariy-metodologik asoslari.....	209
N.Karimov	
O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi.....	212

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA NOAN'ANAVIY TA'LIM BERISH METODLARINI
AMALIYOTGA JORIY ETISH ORQALI CHET TILLARNI O'QITISH SIFATINI YAXSHILASH****IMPROVING THE QUALITY OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING BY IMPLEMENTING
NON-TRADITIONAL TEACHING METHODS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS****ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ПУТЕМ
ВНЕДРЕНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ****Zaripova Aziza Shaxobiddinovna****¹Zaripova Aziza Shaxobiddinovna**– Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch
doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada, chet tillarini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish uchun har xil vositalardan, jumladan, til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini inobatga oladigan samarali metod va usullardan foydalanish zarurligi, chet tili fani bo'yicha o'quv dastur va o'quv rejalarda mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va ularning yangi foydali turlarini ishlab chiqish maqsadida o'quv dastur va rejalar batafsil tahlil qilinishi kerakligi haqida fikrlar berilgan. Tadqiqotning maqsadi chet tili o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va o'qitish metodikasiga oid chuqur bilimga ega bo'lishlari keraklidir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, chet tili o'qituvchilari malakalarini kollejar yoki universitetlarda oshirib borishlari lozim degan xulosaga kelindi.

Аннотация

В данной статье в учебных программах и учебных планах по иностранному языку присутствует необходимость использования различных инструментов для повышения эффективности процесса обучения иностранному языку, в том числе эффективных методов и методов, учитывающих потребности изучающих язык. Для выявления имеющихся недостатков и разработки новых полезных их видов существуют мнения о необходимости детального анализа образовательных программ и планов. Цель исследования состоит в том, чтобы учителя иностранного языка обладали глубокими знаниями педагогики начального образования и методики преподавания. По результатам исследования сделан вывод, что учителям иностранных языков следует повышать квалификацию в колледжах или ВУЗах.

Abstract

In this article, the need to use various tools to increase the effectiveness of the foreign language teaching process, including effective methods and methods that take into account the needs of language learners, is present in the foreign language curriculum and curricula. In order to identify the existing shortcomings and develop new useful types of them, there are opinions that educational programs and plans should be analyzed in detail. The purpose of the research is that foreign language teachers should have in-depth knowledge of primary education pedagogy and teaching methodology. According to the results of the research, it was concluded that foreign language teachers should improve their qualifications in colleges or universities.

Kalit so'zlar: samarali o'qitish usullari, yondashuvlar, CEFR, motivatsiya va ta'lim, grammatik-tarjima metodi, tilni rivojlantirish.

Key words: effective teaching methods, approaches, CEFR, motivation and education, grammar-translation method, language development.

Ключевые слова: эффективные методы обучения, подходы, CEFR, мотивация и обучение, грамматико-переводной метод, развитие речи.

KIRISH

Barchaga ma'lumki, rivojlanish va taraqqiyotni tanlagan har bir davlat, eng oldin, kelajak avlodni komil va har jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga urg'u beradi va ushbu maqsadga erishishda ta'lim tizimining alohida roli borligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo'nalishida ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan. Harakatlar strategiyasida Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatiga alohida urg'u berilgan va ta'lim samaradorligini oshirish uchun ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlari joriy etilishi rejalashtirilgan. Bunda faqat talabalarning salohiyatini emas, balki, ta'lim berish va o'qitish sifatini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar bilimi va salohiyati,

zamonaviy innovatsion axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Samarali o'quv jarayonlarini tashkil qilish har doim dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblangan. Xususan, samarali o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha nazariyalari va amaliyoti masalalari, ularni qo'llashning metodik va didaktik asoslari, shuningdek, yangicha onlayn ta'lim jarayonini yurtimizda qo'llash masalalari yurtimiz tadqiqotchi olimlari A.Abduqodirov, N.Muslimov, U.Begimkulov, A.Hayitov, M.Lutfillaev, N.Taylaqov, MDH olimlari Ye.Polat, A.Andreev, N.Naydenova, G.Levkin, I.Varganova, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, M.A.Malsheva, S.Bogdanova va Xorij olimlari A.Amadco, I.Allen, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Douglas, P.Taylorlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi mohir o'rgatuvchilar namunali axloqiy fazilatlariga ega bo'lsagina talabalar bilimi va o'qitish sifati haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprelda «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda belgilangan vazifalarni ijro etish va oliy ta'lim tizimida samaradorlikka erishish maqsadida 2017-yilning 18-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 515-sonli qarori qabul qilindi va Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalarini attestatsiya qilish boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Albatta o'qitish sifati – jamiyatda ta'lim jarayonining haqiqiy ko'rinishini va natijasini, shaxsning kasbiy fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifatining yaxshiligi ta'lim muassasasi faoliyatning turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatgichlar orqali baholanadi va ko'rsatgichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari, moddiy-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi. Xalqaro olib borilgan tajribalarda o'quv dasturlarini yaxshilash kabi loyihalarda dastlabki muhim vazifalardan biri islohotning boshlanishidan avval tadqiqot o'tkazish va amaldagi holatning asosiy xususiyatlarini o'rganish, isloh qilish zarur bo'lgan sohalarni aniqlash va shundan kelib chiqib, takomillashtirilishi lozim bo'lgan vazifalar ustida ishlashdir. Bundan bir necha yil avval O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU) va Britaniya Kengashi tomonidan ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash holatini o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazilishi ham ana shunday muhim tajribalardan biri bo'ldi. O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish sifati va darajasini doimiy oshirish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish va bitiruvchilar uchun qo'yiladigan aniq va jahon standartlariga mos keladigan talablarni o'zlashtirish maqsadida o'tkazilgan ushbu so'rovnomatadqiqot loyihasi quyidagi asosiy xulosalarni havola etdi [2]:

- ingliz tili o'qituvchisi kasbiga bo'lgan qiziqish oshmoqda va bitiruvchilarning ko'pchiligi ushbu kasbni tanlamoqda;
- ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida va o'qitishda talabalarning kasbiy va lingvistik ehtiyojlariga mos kelmaydigan qo'shimcha fanlar mavjud;
- OTMLarda asosan grammatik – tarjima metodi orqali (o'zbek yoki rus tilida) ta'lim berilmoqdaki, bu o'quvchilarning ingliz tilida kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga imkoniyat yaratmaydi va bilimni oshirmaydi;
- ingliz tili va ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv dasturlar va qo'llanmalar eskirgan darsliklarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning ingliz tili o'qituvchilari sifatida ehtiyojlarini qoniqtirmaydi [1].

Natijalarga tayangan holda chet tili o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini tubdan o'zgartirish jarayonlari boshlandi. Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umumetirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference)ni tadbiq etish bilan birga O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rganishga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Unda chet tilini o'qitishga ixtisoslashgan filologik ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari Oliy ta'lim muassasasidagi to'rt yillik tahsillari oxirida o'rganayotgan chet tili bo'yicha S1 darajani egallashlari

PEDAGOGIKA

minimum sifatida ko'p davlatlardagi kabi belgilab qo'yildi va ta'lim yo'nalishlarining malaka talablarida talabalarning tilga tayyorgarlik darajasi, bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ham yangilandi. Ushbu islohotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Britaniya Kengashi o'rtasidagi hamkorlik doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Loyihaga respublikadagi ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan 17ta oliy o'quv yurti a'zo bo'ldi va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajardi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi [3]:

- mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish;
- innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g'oyalarni joriy etish;
- pedagogik kadrlarni kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;
- kasbiy masalalarni yechishda talabalarni ijodiy yondashadigan va mas'uliyatli qilib tarbiyalash. Ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'qituvchi egallaydi u nafaqat talabalarga bilim beradi, balki bo'lajak kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu u asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - aniq fan va amaliyot sohasi bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lishi;
 - o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning bo'lishi;
 - kuzatuvchanlik – o'quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg'ab olish;
 - tashqi va ichki muhit bilan aloqa o'rnatish qobiliyati; — o'z sohasi bo'yicha tanilganligi, mavqeyi;

- ilmiy-tadqiqot sohasidagi faolligi, ilmiy maktabning mavjudligi va h.k.

Ta'lim berish sifati yakuniy natijaga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy ko'rsatgich hisoblanadi, chunki ta'lim jarayoni markazida ta'lim oluvchilar turadi va talabalar uchun mashg'ulotlar o'tiladi, o'quv adabiyotlari yoziladi, yangi ta'lim texnologiyalari ishlab chiqiladi. Shu sababli ta'lim sifatini belgilashda ta'lim oluvchilar bilim berish sifatiga e'tibor qaratish zarur va shartdir. Ta'lim oluvchilar sifatini quyidagi ko'rsatgichlar bilan baholash mumkin:

- o'qiyotgan yo'nalishi bo'yicha kasbiy bilim darajasi;
- axborot (kompyuter) texnologiyalarni bilish darajasi;
- chet tili bo'yicha bilimi;
- muayyan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'qishga ishtiyoqi, qiziqishi, eslash-xotira qobiliyati va shu kabilar.

O'qitish sifati samaradorligini oshirish, ta'minlashda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining ham munosib o'rni bor. Ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, ularning ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratish, pedagog-o'qituvchilarining faoliyatini tashqi baholashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash, pedagog xodimlarni fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlardan, ilg'or xorijiy tajribalardan xabardor qilish kerak. Bu borada Prezidentimizning «Pedagogik kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini e'tirof etish joiz. Qarorga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari tegishli hududdagi oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga berildi. Tabiiyki, bu jarayonda ularning faoliyatiga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga bo'lgan talablar yanada kuchayadi. Binobarin:

- o'qituvchi-pedagoglarning metodik ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim jarayoniga pedagogikaning ilg'or shakl va usullarni joriy etish;
- ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha pedagog kadrlarning o'quv-metodik ishlarni bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- masofadan o'qitish usullarni yanada takomillashtirish;
- pedagog kadrlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish;
- tegishli yo'nalishlar bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklar bo'yicha zamonaviy metodik, axborot-ma'lumotnoma bazasini yaratish;

- ta'lim dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish kabilardir.

Sifatli ta'lim natijalariga erishishda o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'ta muhimdir. Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifati zamonaviy texnologiyalarga bog'liq bo'lsa, ta'lim muassasalarida natijalar sifati professor-o'qituvchilar bilimi sifati, texnologiyalarni qo'llay olishi bog'liq hisoblanadi. Hozirda til o'rgatishning nisbatan ancha oson, har tomonlama qulay usul va yo'llari, metodlari mavjud. Misol tariqasida, o'z tajribamdan kelib chiqqan holda o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan «Motivatsiya berish» usulini keltirib o'tmoqchiman bu usul o'z nomidan kelib chiqqan holda talabalarda individual motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu usulda mashg'ulotni boshlashdan oldin talabalar e'tiboriga o'zlari o'rganayotgan tilidagi bir videorolik havola etiladi, bu rolikda, talabalarni yangi bilim olishga, harakat qilishga, kurashishga, kuchli bo'lishga undovchi lavhalar berilishi mumkin va bu usulning innovatsion jihati shundan iboratki, birinchidan, bu usul talabalarga «Warm up activity» vazifasini bajaradi, ikkinchidan, rolikning xorijiy tilda berilganligi talabalarni jonli muloqot jarayoniga jalb eta oladi va keyingisi ijobiy emotsional motivatsiyani shakllantira oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati, o'quv uslubiy adabiyotlar tarkibi, tuzilishi va mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish muhim omil sifatida qaralishi lozim deb hisoblaymiz. Chet tilini o'rgatishdan umumiy maqsad — o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, chet tilini boshlang'ich maktabdan o'rgatish ularda shu qobiliyatni kelgusida shakllantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'rsatilgandek, darslarni sifatini rivojlantirish uchun o'qituvchilar dars berishning yangi metodlarini o'rganishlari, o'zlari ustida yanada ko'proq ishlashlari, internet resurslari yangi texnologiyalardan foydalanishlari zarur. Qo'shimcha qilib aytganda, chet tilini o'qitish dasturi o'quvchilar boshlang'ich sinflarda egallagan bilimlariga muvofiq ishlab chiqilishi kerak va shu asosida o'quv dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Toshkent sh., 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 20 aprelda «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori
3. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment: Language Policy Unit// Council of Europe. -Strasbourg.-2001. Available online: http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/Cadre1_en.asp. Haugen E. Language Contact // Proceedings of the 8th International Congress of Linguists. –Oslo, 2005.
4. Murneva M.I. Nolingvistik fakultetlarda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi: fan yoki san'at? / M.I. Murneva, N.A. S.Hestakova, E.V. Samoylova // Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyotga oid savollar. - Tambov. - 2018. - No 3-2 (81). - S. 415-418.